

Date: 17th January-2026

IMOM BUXORIY HADISLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI VA ULARNI O'QITISH USLUBIYATI

Vafoqulova Go'zal Ochilovna

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Telefon +998(97)9252885

Annotatsiya: Maqolada Imom al-Buxoriy hadislarining tarbiyaviy ahamiyati keltirilgan, hadislardan ijodiy foydalanishda keyingi asrlardagi harakatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Rasululloh, hadis, sahih, so'z, hikoya, naql, rivoyat, sahoba, sunnat, qavl, riyo.

Imom al-Buxoriyning hayoti, ilmiy merosini o'rganish va uni keng targ'ib qilish, xalqimizni ma'naviyatimizning mustahkam ildizlaridan biri bo'lgan diniy qadriyatlar bilan kengroq, chuqurroq tanishtirish, ularning keng omma, ayniqsa yoshlar tomonidan sog'lom idrok etilishiga yordamlashish bugunning asosiy vazifasidir. Shu bilan birga bu borada ta'lim tizimida adabiyot fanini o'qitish va turli mavzularni o'quvchilarga o'rgatishda turli interfaol metodlardan foydalanish ham bugunning dolzarb vazifasidir. Ta'lim tizimiga turli ilg'or pedagogik texnologiyalar joriy etila boshlandi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ham "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz"⁹, deya ta'kidlagan edilar. Bugungi kunda ta'limga xos innovatsion texnologiyalar o'qitish samaradorligini belgilovchi vositaga aylandi. O'quvchilarning mustaqil bilim olishi, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, ularni kasbga yo'naltirish masalasi o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi lozim.

Mustaqillik davrida hadisshunoslikning mavqeyi nihoyatda oshdi. Hadislar Muhammad payg'ambar hayoti va faoliyati, shuningdek, uning turli sharoitlarda diniy, falsafiy, axloqiy-ta'limiy mavzularda aytgan xilma-xil fikrlari, ko'rsatmalari yoki munosabatlarini aks ettiradi.

Hadislarning yuzaga kelishi uch omil bilan ko'rsatiladi:

1. Muhammad payg'ambar aytgan gaplar.
2. Uning o'zi qilib ko'rsatgan ishlar
3. Payg'ambarimiz tomonidan ko'rilgan yoki kuzatilgan ishning taqiqlanmagani.

Ana shu uch holatning har biri sunnat deyiladi. "Sunnat" ham arabcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi "yo'l, ravish, odat" demakdir. Istilohiy ma'noda esa Muhammad payg'ambardan qolgan urf-odatlarga aytiladi. Ularni bajarish vojibdir. Ularda islom diniga oid tushunchalar va ularning talqini, xususan, farz, vojib, sunnat, halol, harom, makruh kabi tushunchalarning ma'no qamrovi, izohi o'z aksini topgan. Hadislarning asosiy katta

⁹ Mirziyoyev Sh.M. - "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" ma'ruzasi // Kuch adolatda gazetasi. №: 47. 2016 yil. 8 dekabr. 3-bet.



Date: 17th January-2026

qismi axloq-odob masalalariga, inson ma'naviyati bilan bog'liq muammolarga qaratilgan.

Hadislarni to'plab, ularning haqiqiyliklarini aniqlash bilan shug'ullangan olimlar muhaddis deyiladi. Imom Buxoriy hadislarida ilmni o'rganuvchilar ham, uni o'rgatuvchilar ham hadislarida mo'tabar kishilar qatorida ulug'lanadi: *"Foydali ilmlarni o'rganuvchi odamning gunohini kechirilishini so'rab, har bir narsa, hatto dengizdagi baliqlar ham istig'for aytadilar"*. Quyidagi hadis ham ilm bilan bog'liq: *"Ilmning ofati - esdan chiqarmoqlik va ilmga rag'bat bo'lmagan kishilarga o'rgatib, uni zo'ye ketkazmoqlikdir"*.

Vatan va vatanparvarlik bilan bog'liq hadislar ham anchagina. Tabiiyki, ular orasida *"Vatanni sevmoq iymondandir"* hadisi mashhurdir.

Imom Ismoil al-Buxoriy keltirgan hadislarining yana bir o'ziga xos xususiyati ularning aniq manbalari ko'rsatilganidir: *"Oллоh Taoloning rozi bo'lishi otaning rozi bo'iishiga va uning g'azabi ham otaning g'azabiga bog'liqdir"*, deyilgan hadisning Abdulloh ibn Umar tomonidan rivoyat qilingani qayd etiladi.

Hadislarda ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj bo'lgan kishilarga alohida e'tibor berilgan: *"Qalbing muloyim, hojating ravo bo'lishini xohlaysanmi? Xohlasang, yetimlarga mehribon bo'l, ularning boshini sila, o'z taomingdan ularga yedir. Shunda diling yumshab, hojating ravo bo'lur"*.

Bugina emas, yetimparvarlik Ollohgа xush keladigan xislat: *"Tangri nazdida uylarning yaxshirog'i - yetimlar izzat qilinadigan uydur"*. *"Men yetimning kafilligini olgan odam bilan jannatda birga bo'lurman"*. Ammo yetimlar haqqini yeyishdan tiyilmoq shart, hatto u harom qilinadi: *"Ikki zaif toifa, ya'ni yetim va ayol haqqini yemoqlikni sizlarga harom qilaman"*.

Ayni paytda yetimparvarlik bilan bog'liq aqidalar bayoni ham diqqatga sazovor:

"Kimki o'zining yoki birovlarining yetim bolalarini to'voyaga yetib, mustaqil hayot kechiradigan bo'lgunlaricha tarbiya qilsa, unga jannat muqarrardir".

Hadislardan ijodiy foydalanish keyingi asrlarda ham davom etdi. Bu yo'nalishda Alisher Navoiyning "Arba'in" ("Qirq hadis") asarini eslash joiz. Zamondoshlarimizdan Abdulla Oripovning "Haj daftari" kitobi ham, asosan, hadisi shariflarga ijodiy yondashish oqibatidir.

Hadislarning barchasida ham kishilar orasidagi iliq munosabatlar, yaxshi fazilatlar, ijobiy axloqiy-ma'naviy qadriyatlar ulug'lanadi, ezgulik targ'ib qilinadi, yovuzlik, yomonlik esa qattiq qoralanadi. Ularni o'qib-o'rganish yoshlarimizning serfazilat bo'lishlariga yaqindan yordam beradi. Ular tarbiya maktabi sifatida avlodlar ko'nglidan mustahkam joy olaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Kuch adolatda gazetasi. №:47. 2016 yil 8 dekabr.
2. Ahmedov S va b. Adabiyot (5-sinf). - T.: Sharq, 2020. 21-33-betlar
3. Yo'ldoshev Q va b. Adabiyot (7-sinf). - T., 2017. 129-145-betlar

